

---

# INKLYUZIV TA'LIM SINFLARI O'QITUVCHILARIGA QO'SHIMCHA USTAMA TO'LANADI



## **Inklyuziv ta'lim sinflari o'qituvchilariga qo'shimcha ustama to'lanadi**

2021-yil 12-oktyabrda Vazirlar Mahkamasining 638-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" qaroriga muvofiq inklyuziv ta'lim sinflari o'qituvchilariga mehnatning alohida sharoitlari uchun har oyda quyidagicha ustama haqi to'lanishi belgilangan;

sinfdan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bir nafar bola uchun - lavozim maoshining 10 foizi;

2 nafar bola uchun - lavozim maoshining 20 foizi;

3 nafar bola uchun - lavozim maoshining 30 foizi;

ikki va undan ortiq inklyuziv ta'lim sinflarida 4 nafar va undan ortiq bola uchun ta'lim-tarbiya ishlarini olib borgan o'qituvchilarga va maxsus pedagoglarga - lavozim maoshining 40 foizi miqdorida.

**Shoxrux Sobirov - Rishton tuman adliya bo'limi inson huquqlarini himoya qilish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'linmasi bosh maslahatchisi**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-01 16:57:39